



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Maxsus son.

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qo'choqbo YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliyana MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67
e-mail: til_adabiyoti@mail.uz
web-sayt: www.tilvaadabiyoti.uz

Jurnalidan ko'chirilgan maqolalar "Til va adabiyot" ta'limi dan olinadi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat maqomi nazorati mavjudligi kelmaydigan fikr-mulohazalari hisoblanishi mumkin.

Tahririyatga kelgan og'ayimlar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Biomassazh. 2022. 25.06. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Sharti bosma tabaqi 8.0. shkalasi-gammatasi. 10, 11 kepl. »ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ bosma-xonalarida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Bayrutiqa ... Adali 200 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

1991-yildan chiqqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ
LANGUAGE AND LITERATURE

TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

G'afurjon Muxamedov. Toshkent viloyat chirchiq davlat pedagogika instituti - 5 yoshda	2
DOLZARB MASALA	
Rayxon Rasulova. Og'zaki va yozma nutq - komilik belgisi	
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	
Feruza Murodova. Maktab adabiyot darslarida hikoya janri o'qitish texnologiyasi	7
Sarvinov Berdiyeva. O'quvchilarda matn bilan ishlash va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari	8
Ruxsora Murodova. ona tili ta'limida nostonat testlardan foydalanish usullari	11
Tojixon Sabitova. Maqolalar badiiyatiga doir	12
Sirdaryoxon O'tanova. Adabiy qahramonlar ruhiyati va tasvir muhsarakligi	14
TAHLIL	
Mohizhar No'monova. Hamid Olimjon lirikasida epitetning semantik-stilistik xususiyatlari	16
Gulmira Komilova. Tilshunoslikda lingvokulturologiya	18
Nilufar Xatolova. O'tkir Hoshimov ijodida obraz yaratish mahorati	20
Umid Sharmatova. Taqqaslashirilgan adabiyot ta'limida binar metodik usullar	22
O'tkir Islomov, Gulzoda Bekmuratova. Madaniy nutq - behalo ma'naviy boylik	22
Adiba Davlatova. So'zning asl ma'nosini - shoirning asl dardi	24
Nodira Xoligova, Humoyun Umaraliyev. Komil inson masalasi - jamiyat masalasi	28
Iroda Xoligova. Hamza Hakimzoda niyozining dramalarida monologik nutqning o'rni	30
Nizomiddin Bozorov, Ulug'ov Chorfiyeva. Dramatik asarlarda makon, zamon va badiiy tilning komparativ qirralari	32
Bahorov Eshmanova. Ingliz va o'zbek maqollarning kognitiv-qiyosiy tahlili	34
Ziyoda Usmonova. Ta'lim tizimiga oid kutuzatish, tahlillar va takliflar	36
Gulshodaxon Tojiboyeva. Abdulla Qodiriy va zamondoshlari ijodiga ayollar obrazining muhsarakat jihatlari	38
Emina Achilova. O'tkir Hoshimovning "urushning so'ngi qurboni" hikoyasida psixologik tasvir	40
Musajjan Tadjibayev. Germaniyatda psixologik talqin muammasi	42
TADQIQOT	
Hoshimjon Quchqorov. Tarjimon, tarjima va matn	44
Nafisa Rahmanova. Nizomiy va Navoiyning ota-o'g'il munosabatlari haqidagi qarashlari	46
Laylo Xasanova. Navoiy lirikasida obrazni ifoda etishda ritm va mazmun uyg'unligi	49
Arofotoy Muynidina. O'zbek milliy uyg'unlash adabiyoti vakillari ijodida muvashshah san'ati	51
Mohgul Mavlonova. "Farhod va Shirin" dostonida shopur obrazini talqini	53
Nizomiddin Bozorov, Mohira Hayitova. Samimiyatning teran badiiy ifodasi	55
Ra'no Xayrullayeva. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish, nutqini o'stirish yo'llari va vazifalari	58
Nafisa Muratova. Maktabda tarixiy so'zlar mavzusini o'qitishning o'ziga xos usullari	60
Abdushukur Shofqorov. "O'zbek tilining to'zli lug'ati" dagi dialektal so'zlar	63
Rahmatilla Norbekov. Mung'lig' qalbar kuychisi	65
KICHIK TADQIQOT	
Qodirjon Mo'yidinov. Sud nutqi lektsiklasidagi o'zlashtirma so'zlar	67
Shahnoza Azimjonova. Akademik Naim Karimovning ijodkor portretini tarixiy jarayon zaminida o'rganish mahorati	69
Xosiyat Abdugahhorova. Mustaqil so'z turkumlarida antisemik munosabatlarning ifodalinishi	70
Dildora Yorbulova. Hamza hakimzoda niyozining ashularida xotin-qizlar mavzusi	72
Aziza Avezova. Alisher Navoiy "turkiylar choseri" mi	73
Nodira Xoligova. Millat va jamiyatning badiiy in'ikosi	76
Hikmat Hikmatov. Adabiyot darsida yangi - xamsa" metodidan foydalanish usullari	78
Humoyun Umaraliyev. Hamza Hakimzoda Niyozining she'riyatida er va bilim talqini	80

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

jurnali

ISSN 1691-2689

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining

Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashridir.

emas, ikki emas olti farzandni qaro yer bag'riga bergani, yolg'izi Kimsanni qahramon bo'lganini bilsa-da, kampiriga hech sezdirmagani, umid bilan kelsa to'y qilishni doim niyat qilishi, el-yurt ishiga kamarbasta inson ekanligi va Ermon buvaning ola sigiri Qora ammaning galangsa sigiri bo'lib "Ikki eshik orasi" romaniga ko'chganligi kabilarda ma'lum bo'ladi. Farqli jihati esa Ermon buva bir oyog'i urush tufayli oqsoq, 60 yoshida farzandli bo'lishi va Husan Dumaning ovoqidagi chiyillash deb qaralsa, bir jihatdan bu personajning chapani, ichi tor, jahli tez ekanligidan darak beradi. U Oqsoqoldan boshqa hech kimni gapiga kirmaydi. Undan boshqa hech kimni hurmat qilmaydi. Unga o'zbekona tantilik, mardlik xislatlari yarashib turgandek, har qanday sharoitda ham el-yurt uchun tinmay mehnat qiladi. Ammo uning o'sha davrdagi ishbilarmonlik bilan kolxozga keltirgan katta foydasi uchun yorliqni yuqsizlarcha boshqalar olib ketadi. Shuni bilib turib ham indamagani, Husan Dumaning pastkash odam bilan teng bo'lishni o'ziga loyiq ko'magani va chinakam mag'zur, qalbi pok, mard inson ekanligini bildiradi.

Muhimi, adib ijodining bir jihati shuki, asarlaridagi ko'plab voqealarda o'zi O'.Hoshimov asarlarini o'qib

tahlil qilish mobaynida ijodkorning inson ma'naviy qiyofasini, hissiy kechinmalarini, psixologik jarayonlarini teran tahlil qilish mahoratiga ega ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. "Dunyoning ishlari"dagi muallifning onasi, Ermon buva, mahallaning "Shayxi", "Ikki eshik orasi"dagi Husan Duma, Kimsan, Qora amma, Robiya, Muzaffar va Shomurod, "Nur borki, soya bor"dagi Sherzod Samandarovich kabi obrazlar farzand tarbiyasi, ota-ona, oila, Vatanga muhabbat tuyg'usini kitobxonga ta'sirli va obrazli yetkazib berishda ahamiyati katta. Ayniqsa, ijodkor yaratgan ota obrazi uning asarlarida birdek fidoyi, jonkuyar va beqiyos mehr ibtidosi sifatida aks etadi. Yozuvchi asarlarini bir-biri bilan bog'lab turuvchi va to'dirib turuvchi jihatlar ham shunda. O'.Hoshimov o'z qahramonlarini yaratishda ko'proq real shaxslardan, o'zi tanigan-bilgan insonlar xarakteridan, qiyofasidan va, qolaversa, hayotiy voqea-hodisalaridan foydalangan. Shu bois barcha obrazlarda o'zbekona ruh, millatimizga xos xarakter xususiyatlar yorqin aks etgan. Adibiy qahramon yaratish va xarakterlar ruhiyatini badiiy bo'yoqlarda yetkazib berish adibning yuksak poetik mahorati belgisidir.

1. Shermuhammedov P. Davr qahramon taqdirida. – Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at", 1976. 15-b.
2. S.Ahmad. Yo' qotganlarim va topganlarim. - Toshkent: "Sano standart", 2019. 240-bet.
3. Rasulov A. Badiylik - bezavol yangilik. - Toshkent: "Sharq", 2007. 291-bet
4. O'sha kitob. 289-bet.

Umida SHERMATOVA,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti dotsenti

TABAQALASHTIRILGAN ADABIYOT TA'LIMIDA BINAR MA'RUZA METODI

"Men – sinuq, ko'nglim – sinuq, sabrim uyi xud yerga past, Bilmagay holim shikastin, ko'magan muncha shikast", deb yozgan edi Alisher Navoiy. Navoiy ta'birida aks etgan g'am chekish, ozurda bo'lish, shodlanish, taskin olish kabi ruhiy kechinmalarining badiiy so'zda-gi jilvasi muayyan adabiy bilimlar bilan qurollanmagan kitobxonga ta'sir etishi amri mahol. Buyuk adabiyotning oliy maqsadlaridan bo'lgan inson ruhining tozari-shi (katarsis)ga so'zdan ta'sirlanish, hayratga tushish, go'zallikka daxldor bo'lish orqali erishiladi. Badiiy matnni idrok etishdek qiyin kechadigan jarayon haqida adabiyotshunoslar ham, muallifning o'zi ham, o'qituvchilar ham ko'p gapiradilar. Badiiy asar mutolaasi kimlar uchun biror hodisani qayta kashf qilish jarayoni, kimlar uchundir tafakkur manbasi sifatida talqin qilinadi. Har qanday holda ham kitob, umuman, san'at asari bilan muloqotning o'ziga xos qonuniyatlari mavjud. Adabiy-

badiiy muloqot badiiy nutqda ifodalangan muallif fikri-ni kitobxon tafakkurida aks etishi demakdir. Bu o'qil-ganlar asosida mazmunning shaxsiylashuv jarayonidir. Adabiy-badiiy muloqot masalasi metodikada uzoq tarix-ga ega muammo. Rus metodist olimi Y.V.Perevoznaya o'quvchi-kitobxonni badiiy matn mutolaasiga jalb qilish-ni o'rta asosiy shartlarini keltirib o'tib, san'at bilan muloqot o'quvchiga ruhiy erkinlikni, oliy his-tuyg'ularni tuyishni ta'minlash bilan birgalikda, badiiy asarning so'z san'ati sifatidagi o'ziga xos xususiyatlarini ochiq-lash-ga yordam berishini e'tirof etadi. Adabiyot o'qitishda bu vazifalarni amalga oshirish yetakchilik qilishi shub-hasiz. Kompetentlikka asoslangan ta'lim jarayonida bu vazifalarni amalga oshirishga qay darajada erishila-di? Ta'limni texnologiyalashtirish davrida buning iloji bormi? Badiiy so'z shuhiyatini, qudratini yo'qotmagan

holda adabiyot o'qitish jarayonini texnologiyalashtirish qay tarzda amalga oshiriladi?

Zamonaviy ta'lim standartlari kompetentlikka asoslangan yondashuv sharoitida adabiyot o'qituvchisining turli o'quv vaziyatlarida samarali faoliyat yuritishini taqozo etmoqda. Buning uchun adabiyot o'qituvchisidan mutaxassislikning *ma'lum doiradagi savollari*ni hamda *faoliyat algoritmlarini* o'zlashtirish talab etiladi.

Ayni muammoning ilmiy-amaliy yechimi adabiyot o'qituvchilariga adabiyot o'qitish metodikasining zamonaviy texnologiyalar ustuvorligi sharoitida *ma'lum doiradagi nazariy savollarga* javob topishlariga, metodikaning tarixi, hozirgi holati hamda prognoz-modellashtirish orqali kelajagi bilan muloqotini nazarda tutuvchi kommunikativ maydonga kirishiga yordam beradi. Adabiyot o'qitishda samaradorlikka erishishning muhim shartlaridan biri o'qituvchining o'z faoliyatini to'g'ri modellashtirishidir. Bunda adabiyotshunoslik va lingvistik asoslarini egallash barobarida o'quvchiga o'zlashtirilgan bilimlarni to'g'ri va izchil yetkazish asosiy muammo sifatida ko'zga tashlanadi.

Ma'lumki, adabiyot mashg'ulotlari o'rganiladigan material xususiyatiga ko'ra o'qituvchi faoliyatining *algoritm*larini ishlab chiqishni taqozo qiladi. O'qitish tamoyillariga rioya qilgan holda kommunikativ texnologiyalar sharoitida *faoliyat algoritmlarini* ishlab chiqish orqali nafaqat adabiyot mashg'ulotlarini mahorat ila model-lashtirish, balki kutiladigan natijalarni katta ehtimol bilan kafolatlash mumkin bo'ladi. Bunga adabiyot o'qituvchisining ijodiy laboratoriyasidan joy olishi mumkin bo'lgan binar ma'ruza qilish metodi orqali erishish katta qulaylik tug'diradi.

Tabaqalashtirilgan adabiyot ta'limi o'qituvchi oldiga oddiy ko'nikma va malakalarga ega o'quvchi bilan emas, balki tom ma'nodagi jodkor shaxs bilan ishlash muammosini qo'yadi. Muammo o'zining ko'p qirrali ekanligi bilan ham o'qituvchidan chuqur bilim hamda yuqori darajadagi kasbiy malakani talab etadi. Binar ma'ruzalar tashkil etish bu muammoning bir yechimi sifatida qaralishi mumkin.

Binar ma'ruzaga tayyorgarlik jarayoni har ikki ma'ruzachiga taalluqli. Bizningcha, birinchi ma'ruzachi (dars-ni boshqaruvchi) – adabiyot o'qituvchisining o'zi mavzuning metodika bilan bog'liq tomonini shakllantiradi, ikkinchi ma'ruzachi (taklif qilingan ekspert) mavzuning ilmiy jihatlari shakllantirishga mas'ul bo'ladi. Tavsiya etilgan *faoliyat algoritmi*da ilmiy muammoni shakllantirish, mazmuni aniqlash, fikrni dalillovchi faktik materiallarni, asoslarni to'plash kabi vazifalar ma'ruzaga taklif etilgan ekspert tomonidan, ma'ruga maqsadlarini belgilash, o'quv soatini taqsimlash esa adabiyot o'qituvchisi tomonidan amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Maktab adabiyot ta'limida mumtoz adabiyotni o'rgatish bilan bog'liq muammolar adabiyot o'qitish metodikasining o'z dolzarbligini yo'qotmagan muammolaridan biridir. Filologik fanlarga ixtisoslashgan hamda ijod maktablari adabiyotni o'qitish jarayonida bu muammo keskin tus oladi. Muammoning yechimi adabiyot mashg'ulotlarini binar ma'ruza asosida tashkil etish orqali hal etilishi mumkin.

Ijod maktablari 4-7-sinf "Maxsus adabiyot" fanidan Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" va "Sab'ayi sayyor" dostonlari, "Muqbil va Mudbir" hikoyati uchun 8 soat vaqt ajratilgan.

Dasturga ko'ra, dastlab, "El desa Navoiyni" to'plamidagi rivoyatlarda Alisher Navoiy shaxsining aks etishi haqida ma'lumot berish, "Dono savdogar", "Bir matla" tarixi, "Dono Alisher", "Nuqtaning qudrati" kabi rivoyatlar bilan tanishish ko'zda tutilgan.

Keyingi soatlarda shoirning hikmat darajasiga ko'tarilgan shohbaytlari va ularning sharhi ("Hayrat ul-abror" va "Sab'ayi sayyor" dan olingan baytlar asosida) bilan tanishtiriladi.

"Hayrat ul-abror" dostonining tarkibiy tuzilishi yuzasidan ma'lumot berishda dostonidagi maqolalar va hikoyatlarini o'qish, tahlil qilish kabi faoliyat turlari amalga oshiriladi. O'quvchilar Hazrat Ayyub haqidagi hikoyat mazmuni va tuzilishini alohida o'rganadilar.

"Sab'ayi sayyor" dostoni haqida ma'lumot berishda dostonning saffalar dostonlari bilan qiyosiy tahlili, dostonning umumiy mazmun-mundariyasi o'rganiladi. Dars davomida Oltinchi qism yo'lidin kelgan musofirning "Muqbil va Mudbir" hikoyati, uning umumiy mazmun-mundariyasi, hikoyatda mardlik, oiljanoblik, rostgo'ylik tuyg'ularining ulg'ayishi masalalariga to'xtab o'tiladi.

Ko'rinib turibdiki, Alisher Navoiy ijodi yuzasidan olib boriladigan mashg'ulotlar mavzusi keng gamrovli, shu bilan birga murakkab. Dasturda belgalangan vazifalarni amalga oshirishda binar ma'ruza mashg'ulotlarini tashkil etish adabiyot o'qituvchisining ishini ham, o'quvchilarning o'zlashtirishini ham osonlashtiradi.

Binar ma'ruzaga tayyorgarlikda ma'ruzachilardan Alisher Navoiy ijodi tadqiqotchilari haqida o'quvchilarda muayyan tasavvur uyg'otishga qaratilgan ishlarni ham amalga oshirish talab etiladi. Bunda ma'ruzaga taklif etilgan ekspertning beradigan ma'lumotlari umumiy xarakterda bo'lsa-da, unda ilmiy asoslangan faktlarning mavjudligi ayniqsa muhim. Mashg'ulot so'ngida Alisher Navoiy fenomenini o'rganishning o'zi katta bir ilmiy ekanligi, bu ilmiy juda uzoq tarixga ega bo'lsa-da, hali yoritilajak muammolar ko'p ekanligi, bu masalalar necha avlodlarning ilmiy izlanishlariga turki bo'lishi mumkinligi haqida ham to'xtalib o'tish o'quvchilarga ko'rsatilgan motivatsiyalardan biri sifatida talqin qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik, 10-tom. Sab'ayi sayyor. – Toshkent: G.G'ulom nomidagi NMIU, 2012.
2. Navoiy va yoshlar tarbiyasi. Nashrga tayyorlovchi: To'xtiyeva D. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2010.
3. Jabborov N. Maoniy ahlining sohibqirini. – Toshkent: Adabiyot, 2021.
4. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at. Tuzuvchi B. Hasanov. – Toshkent: Fan, 1993.
5. Sirojiddinov S., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. Darslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018.
6. Селевко Г. Энциклопедия образовательных технологий. – Москва: Народное образование, 2005.